



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Buzrukkonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari

Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.

Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH.....	8
Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH.....	15
Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov	
АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	21
Давлетова Адиля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI.....	27
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDA XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	31
Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	36
Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonov Muhridin Bahriddin o'g'li	
AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	44
Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o'g'li, Xolmirzayev Ulug'bek	
BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	49
Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O'razova Marjona Valiboy qizi	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ.....	55
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Давронов Дониёрбек Заррухович	
ANALYSIS OF OUR COUNTRY'S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR.....	61
Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod	
O'ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI	69
M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH.....	77
Qobilova N. Q., Normurodov X. E.	
MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI.....	83
Toirov Bobur G'ofir o'g'li, F.U.Umarov	
SUN'IY INTELEKTNING INSON ONGIGA VA DAVLAT KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISHGA TA'SIRI.....	90
Uskanboyev Temurbek Ismoil o'g'li, F.U.Umarov	
IQTISODIYOT TARMOQLARI YUKLARINI TASHISHNI TASHKIL ETISH.....	97
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	



TARIXIY OBIDALAR ASOSIDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH.....	102
Boltaboyeva Maqsuda Matjonboy qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARNING ROLI.....	105
Abdumutalova Shahzoda Yodgorjon qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ЗА СЧЕТ ИНВЕСТИЦИОННЫХ И ПАЕВЫХ ФОНДОВ	109
Дилшод Насиров, Сухроб Хайитов, Самира Каримова	
КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК УСЛОВИЕ ОСМЫСЛЕННОГО РАЗГОВОРА ОБ ЭКОНОМИКЕ	115
Зайналов Ж. Р., Абдумажидов Ш. Ш.	
ГОСУДАРСТВЕННЫЕ РАСХОДЫ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАНЫ.....	119
Юсупов Азаматжон Икромович, Ишонкулова Феруза Асатовна	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ	124
Насиров Дилшод Фархадович, Казакбаева Динара, Максетбаева Гулпаршин	
ВЕЛИКОЕ УСКОРЕНИЕ: КОНВЕРГЕНЦИЯ ИИ И БЛОКЧЕЙНА КАК НОВАЯ ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПАРАДИГМА 2026 ГОДА.....	129
Насиров Дилшод Фархадович, Синько Юлианна Викторовна, Шамшетова Жамила Муса кызы	
KORXONANING IQTISODIY SALONIYATINI VAHOLASH KO'RSATKICHLARI	134
Turg'unpulatov Ziyovuddin Alijon o'g'li, Odilov Xamidillo Mahmudjon o'g'li	
РОЛЬ БЛОКЧЕЙН-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ	139
Дилмуродов Журабек Улугбек угли, Белалова Гузаль Анваровна	
OPERATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	144
Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, X.M. Odilov	
HAVO IFLOSLANISHI VA YASHIL TABIAT YOMONLASHUVI NATIJASIDA SOG'LIQNI SAQLASH XARAJATLARINING OSHISHI: IQTISODIY TAHLILI	150
Sotvoldiyeva Rayxona Abdurasul qizi, Odilov Xamidillo	
TIJORAT BANKLARIDA PUL MABLAG'LARI HARAKATI VA LIKVIDLIK TAHLILI	155
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, X.M.Odilov	
NOMINAL VA REAL YAIM VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDAGI AHAMIYATI	162
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Jo'rayev Toshbolta To'xtayevich	
YASHIL IQTISODIYOT: ZAMONAVIY RIVOJLANISH PARADIGMASI SIFATIDA TAHLILI.....	167
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
РОЛЬ БРЕНДИНГА В ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЕ МАРКЕТИНГА.....	172
Насиров Дилшод Фархадович, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли, Толибжонов Умеджон Одилевич	
AMIR TEMURNING IJTIMOY, IQTISODIY VA SIYOSIY QARASHLARI	176
Lola Xalikova Nazarovna, Mutabar Absamatova Jamshid qizi	



AMIR TEMURNING IJTIMOIIY, IQTISODIY VA SIYOSIY QARASHLARI



Lola Xalikova Nazarovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası professori,
iqtisodiy fanlari doktori, (DSc).

khalikovauzb@gmail.com.

<https://orcid.org/0009-0004-6624-4689>



Mutabar Absamatova Jamshid qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
XIM 125 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy qarashlari tarixiy manbalar hamda zamonaviy ilmiy talqinlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sohibqiron Amir Temurning markazlashgan davlat boshqaruvi, adolatga tayangan siyosiy tamoyillari, soliq va moliya tizimini tartibga solishga oid qarashlari, ichki va tashqi savdoni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlari, shuningdek, ijtimoiy himoya va rag'batlantirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratildi. Maqolada Amir Temur faoliyatida davlat va xalq farovonligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosiy g'oya sifatida namoyon bo'lishi ochib beriladi. Shuningdek, uning boshqaruv qarashlarida tartib-intizom, nazorat va maslahatga tayangan siyosiy madaniyat muhim o'rin egallagani ko'rsatildi. Tadqiqot natijasida Amir Temurning qarashlari faqat o'z davri uchungina emas, balki zamonaviy davlat boshqaruvi, iqtisodiy siyosat va ijtimoiy barqarorlik masalalarini anglashda ham muhim ahamiyatga ega ekani asoslandi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, davlat boshqaruvi, markazlashgan davlat, Temur Tuzuklari, soliq siyosati, ijtimoiy himoya, moddiy rag'batlantirish, savdo munosabatlari, xavfsizlik tizimi.

Abstract: This article analyzes the socioeconomic and political views of Amir Timur based on historical sources and modern scholarly interpretations. Particular attention is paid to Amir Timur's views on centralized public administration, political principles based on justice, regulation of the tax and financial systems, approaches to the development of domestic and foreign trade, as well as social protection and incentive mechanisms. The article demonstrates that the interdependence between the state and the well-being of the people was a central concept in Amir Timur's activities. It also shows that a political culture based on discipline, control, and consultation played a significant role in his governance. The study demonstrates that Amir Timur's views are important not only for his own era but also for understanding issues of modern public administration, economic policy, and social stability.

Key words: Amir Timur, public administration, centralized state, Temur Tuzuklari, tax policy, social protection, material incentives, trade relations, security system.



Аннотация: В данной статье анализируются социально-экономические и политические взгляды Amir Timur на основе исторических источников и современных научных интерпретаций. Особое внимание уделяется взглядам Амира Тимура на централизованное государственное управление, политические принципы, основанные на справедливости, регулирование налоговой и финансовой системы, подходы к развитию внутренней и внешней торговли, а также социальную защиту и механизмы стимулирования. В статье показано, что взаимозависимость государства и благополучие народа является главной идеей в деятельности Амира Тимура. Также продемонстрировано, что важную роль в его управленческих взглядах играла политическая культура, основанная на дисциплине, контроле и консультациях. Исследование доказало, что взгляды Амира Тимура актуальны не только для его времени, но и для понимания вопросов современного государственного управления, экономической политики и социальной стабильности.

Ключевые слова: Амир Темур, государственное управление, централизованное государство, Temur Tuzuklari, налоговая политика, социальная защита, материальные стимулы, торговые отношения, система безопасности.

KIRISH

Tarixda shunday shaxslar borki, ularning hayotiy faoliyati nafaqat o'z davrida, balki oradan asrlar o'tgan bo'lsa-da, hanuzgacha insoniyat tafakkurida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday buyuk tarixiy shaxslardan biri — Amir Temur. Bugungi globallashuv, siyosiy beqarorlik, iqtisodiy raqobat va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotgan davrda tarixiy tajribaga murojaat qilish har tomonlama muhimdir. Negaki, buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur o'z davrida nafaqat kuchli davlat barpo etgan, balki o'ziga xos davlat boshqaruvi va harbiy intizom tizimini ham yaratgan.

Amir Temurning faoliyati faqat harbiy soha bilan cheklanib qolmagan. U adolatli davlat boshqaruvini yo'lga qo'yish, ilm-fan, madaniyat va tarixiy-madaniy meros yaratishda ham muhim rol o'ynagan. Uning buyruqlari bilan Samarqand, Shahrisabz va Buxoro kabi qadimiy shaharlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining markazlariga aylangan. Ayniqsa, Temuriylar davrida yuzaga kelgan ilmiy va madaniy muhit keyinchalik jahon miqyosidagi olimlar va mutafakkirlar — Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy kabi buyuk siymolar yetishib chiqishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda Sohibqironning tarixiy siymosi O'zbekiston Respublikasida davlat miqyosida qadrlanadi. Uning nomi bilan bog'liq yodgorliklar, muzeylar va tarixiy tadbirlar orqali kelajak avlodga milliy g'urur, vatanparvarlik va tarixiy xotirani mustahkamlash ruhida tarbiya berilmoqda. Bunga misol tariqasida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida: "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak", deb ta'kidlagani ham bejiz emas. Chunki davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning shaxsan o'zlari ham Amir Temur faoliyati bilan qiziqib, unga oid adabiyotlarni o'qishini ta'kidlagan: "Ozroq vaqtim bo'lsa, kitob o'qiyman. Sohibqiron Amir Temurning To'xtamishxon bilan jangi haqida o'qib chiqdim. Amir Temur bu jangda yettita usulni qo'llagan ekan. Jasorati, o'z askarlarini mardonavor tarbiyalashi bilan birga, janglarni ham o'zi boshqargan. O'zim uchun ham bu yangilik bo'ldi. Keyin kimdir shu jang usulini o'rganganmi, deb qiziqib ko'rdim. Hech kim o'rganmagan ekan. Eng avvalo, bobolarimizning usullarini o'rganishimiz kerak", degan edi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, xalqimiz, ayniqsa, millatning kelajagi bo'lgan yoshlar buyuk ajdodlar tarixini qanchalik ko'p o'rganadigan bo'lsa, ularning hayoti va faoliyatidan saboq olib yashasa, qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari jo'sh urib, el-u yurtga bo'lgan muhabbati yanada ortadi.

Bugun O'zbekiston Respublikasida davlat siyosati va boshqaruvi ham aynan Amir Temurning boshqaruv qarashlari bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lmoqda. Shu o'rinda Sohibqiron Temurning: "Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat bilan, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirdim", degan fikrini qayd etadigan bo'lsak, sohibqironning shu kabi teran qarashlaridan muhim xulosalar chiqarish mumkin. Darhaqiqat, u yuritgan saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgan: kengash, mashvarat va maslahat, qat'iy qaror hamda ehtiyotkorlik. Aynan Amir Temurning davlat boshqaruvidagi shu fazilatlar bugungi kunda mamlakatimizda davlat boshqaruvini olib borish jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Amir Temur nafaqat o'z davrida, balki keyinchalik ham tarixchilar e'tiborida bo'lgan shaxsdir. Sharqda uni Sohibqiron — yulduzli sarkarda deb atashgan bo'lsa, G'arbda u Tamerlan nomi bilan mashhur bo'lgan va shu o'rinda ko'plab tarixchilar, yozuvchilar uning shaxsiy faoliyatini o'rganib, e'tirof etishgan. Uning siyosiy, harbiy, madaniy va ijtimoiy faoliyatini o'rganishda qadimiy yozma manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy tarixiy-tahliliy tadqiqotlar ham bu mavzuni yangi metodik asoslarda chuqur o'rganishga xizmat qilmoqda.



Temurning harbiy yurishlari, davlat ishlarini yuritishdagi o'ziga xosligi va shaxsiy fazilatlarini yoritishda Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan yozilgan Zafarnoma asari katta ilmiy ahamiyatga ega. Bu asar Temurning buyurtmasi bilan yozilgan bo'lib, unda 1380–1405-yillar oralig'ida ro'y bergan asosiy tarixiy voqealar, harbiy yurishlar, jang taktikasi va siyosiy qarorlar xronologik va tafsilotli tarzda bayon etilgan. “Zafarnoma” nafaqat tarixiy voqealarni aks ettiradi, balki Temurning sarkardalik mahoratini, adolatga asoslangan siyosatini ham ko'rsatadi[4].

Temur davrining mumtoz tarixchilaridan biri bo'lgan Ibn Arabshoh Temurning fazilatlarini sharhlab: “Temur tengi yo'q fe'l-atvorli, chuqur mulohazali kishi bo'lib, uning tafakkur dengizining qa'ri yo'q va ta'biri tagiga na tekisligu, na g'adir-budur orqali yo'l topiladi”[5], – deb unga yuksak baho bergan edi.

O'zbek tadqiqotchilari ham bu sohada bir qancha ilmiy ishlar olib borganlar. Masalan, Bo'riboy Ahmedov o'zining izlanishlarida Amir Temurning Movarounnahrda siyosiy muvozanatni tiklashdagi rolini, uning diplomatik faoliyati va davlat tuzilmasini yoritgan[6]. Ubaydulla Karimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Temuriylar davlatining boshqaruv mexanizmlari, iqtisodiy siyosati va xalqaro aloqalarining shakllanish jarayoni tahlil etiladi[7].

Shuningdek, rus va g'arb tarixshunoslari ham Amir Temur hayotiga qiziqish bildirib, bir qancha ilmiy izlanishlar qilganlar. Jumladan, Vasily Barthold, Edward Gibbon, John Joseph Saunders kabi tarixchilar Temurning harbiy yurishlari va Sharqiy Yevropa tarixidagi o'rnini yoritgan. Ular Temurning turli hududlarda olib borgan siyosatini, uning musulmon dunyosidagi rolini, Usmonlilar imperiyasi bilan bo'lgan munosabatlarini tahlil qilganlar[8].

Bundan tashqari, yevropaliklar ham buyuk bobomiz siyosatiga qiziqish bildirganlar. Fransuz olimi Louis-Mathieu Langlès Amir Temurning ilm-ma'rifat allomalariga, sohibi hunarmandlarga qanchalik hurmat bilan munosabatda bo'lganligi to'g'risida shunday deydi: “Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko'rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste'dodli bo'lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko'p hollarda taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Negaki, Temur bu sohalarga g'amxo'rlik qilishga asosiy e'tiborini berardi”[9].

Amir Temurning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy qarashlarini o'rganishda birlamchi manbalar ichida Temur Tuzuklari alohida o'rin tutadi. “Temur tuzuklari»da yozilganidek: «Raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim. Ulug'larini ota qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim. Har yerning tabiati, har el-yurt va shaharning rasmi odatlari va mizojidan voqif bo'lib turdim. Har bir yurt va shahar aholisining ulug'lari bilan do'st tutindim. Ularning mizojlari va tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari tilagan odamlarini ularga hokim qilib tayinladim”[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va manbashunoslik yondashuvlariga tayangan holda olib borildi. Manbalarni tahlil qilishda tarixiy kontekstni hisobga olish, amaliy siyosat bilan bog'liqlikni ochib berish hamda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy komponentlarni o'zaro aloqador holda ko'rib chiqish tamoyillari qo'llanildi.

Amir Temur faoliyatini hozirgi zamon tushunchalari bilan sun'iy ravishda tenglashtirmasdan, balki uning davriga xos siyosiy-iqtisodiy mantiqni ochib berishga xizmat qilindi. Shu asosda Amir Temurning qarashlari uch yo'nalishda — ijtimoiy adolat, iqtisodiy tartib va siyosiy markazlashuv nuqtayi nazaridan ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amir Temurning siyosiy qarashlari markazida kuchli, markazlashgan va nazorat qilinadigan davlat g'oyasi turadi. U davlatni faqat harbiy kuch bilan emas, balki maslahat, ehtiyotkorlik, intizom va adolat asosida boshqarish lozimligini anglagan. Ya'ni, ulug' bobokalonimiz Amir Temur “qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi”[3], degan gaplarini tarixga muhrlab ketgan. Bu holat uning qarashlarida qaror qabul qilish shaxsiy irodaga emas, balki tajriba, tahlil va maslahatga tayanganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Amir Temurning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy qarashlarining tizimli tavsifi¹

Yo'nalish	Amir Temurning asosiy qarashi	Amaliy ko'rinishi	Tarixiy ahamiyati
Ijtimoiy siyosat	Raiyat manfaatini hisobga olish	Soliqda yengillik, obodonchilikni rag'batlantirish	Ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlagan
Iqtisodiy siyosat	Moliya va savdoni markaziy tartibga solish	Yagona pul muomalasi, savdo yo'llarini himoya qilish	Hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirgan
Soliq siyosati	Adolat va me'yor tamoyili	Hosildorlikka qarab soliq belgilash	Davlat va raiyat manfaatini muvozanatlashtirgan

1 Temur tuzuklari va zamonaviy tadqiqotlar asosida mualliflar tomonidan shakllantirilgan



Siyosiy boshqaruv	Markazlashgan va nazoratli davlat	Hokimlar ustidan nazorat, kengash va mashvarat	Davlat yaxlitligini ta'minlagan
Xavfsizlik siyosati	Ichki va tashqi xavfsizlikning uyg'unligi	Razvedka, yo'llarni qo'riqlash, harbiy intizom	Saltanat barqarorligini oshirgan
Rag'batlantirish tizimi	Xizmatga yarasha mukofot	Unvon, maosh, suyurg'ol berish	Sadoqat va boshqaruv samaradorligini oshirgan

Siyosiy boshqaruv samaradorligini ta'minlashda nazorat mexanizmlari ham muhim o'rin tutgan. Viloyat va shahar hokimlari ustidan muntazam ochiq hamda yashirin nazorat olib borilgani, hisobot tizimi yo'lga qo'yilgani ko'rsatiladi. Ayniqsa, hokimlarning vazifasi faqat soliq yig'ish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, yo'llar xavfsizligini ta'minlash va ichki osoyishtalikni saqlash bilan bog'liq bo'lgani uning davlatni murakkab tizim sifatida ko'rganidan dalolat beradi.

Amir Temurning iqtisodiy qarashlari esa amaliy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. U hududlar moliyasini muayyan boshqaruv tizimiga birlashtirgani va savdo aloqalarini yengillashtirish uchun umumiy moliyaviy muhit yaratgani bilan ajralib turadi. Bu holat Temur iqtisodiy barqarorlikni davlat mustahkamligining muhim sharti deb bilganini ko'rsatadi. U iqtisodiy boshqaruvni faqat boylik to'plash vositasi emas, balki hududlarni birlashtirish, savdo-sotiqni jonlantirish va siyosiy yaxlitlikni mustahkamlash mexanizmi sifatida tushungan.

Temur davridagi xazina ikki qismdan iborat bo'lgan: joriy xarajatlar va asosiy zaxira alohida yuritilgan, ayrim hollarda kelgusi davr xarajatlari ham oldindan hisobga olingan. Bu ma'lumotlar moliyaviy rejalashtirishning ancha takomillashgan shakli mavjud bo'lganini anglatadi.

Soliq siyosatida esa Amir Temur adolat va me'yor tamoyillariga tayangan. Xiroj va ushr hosil, yer unumdorligi hamda sug'orish sharoitidan kelib chiqib undirilgan. Yangi yer o'zlashtirgan, bog' yaratgan, xarob hududni obod qilgan kishilarga vaqtinchalik soliq imtiyozlari berilgani esa iqtisodiy rag'batlantirishning aniq namunasidir. Bu yondashuv bir vaqtning o'zida ham davlat manfaatini, ham ishlab chiqaruvchining iqtisodiy imkoniyatini inobatga olgan. Bu kabi siyosat orqali Temur raiyatni haddan ortiq ezish davlat xazinasini ham zaiflashtirishini anglagan.

Ijtimoiy qarashlarida Amir Temur xalq farovonligini davlat barqarorligining asosi sifatida tushungan. Raiyatni xonavayron qilish xazinani kambag'allashtirishdir, bu esa o'z navbatida sipoh tarqoqligiga va saltanatning kuchsizlanishiga olib kelishini bilgan. Bu yerda Sohibqiron oddiy inson turmushini faqat axloqiy masala sifatida emas, balki siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning tarkibiy sharti sifatida baholaganini ko'rish mumkin.

Siyosiy boshqaruv samaradorligini ta'minlashda nazorat mexanizmlari ham muhim o'rin tutgan. Viloyat va shahar hokimlari ustidan muntazam ochiq hamda yashirin nazorat olib borilgani, hisobot tizimi yo'lga qo'yilgani ko'rsatiladi. Ayniqsa, hokimlarning vazifasi faqat soliq yig'ish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, yo'llar xavfsizligini ta'minlash va ichki osoyishtalikni saqlash bilan bog'liq bo'lgani uning davlatni murakkab tizim sifatida ko'rganidan dalolat beradi.

Amir Temurning iqtisodiy qarashlari esa amaliy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. U hududlar moliyasini muayyan boshqaruv tizimiga birlashtirgani va savdo aloqalarini yengillashtirish uchun umumiy moliyaviy muhit yaratgani bilan ajralib turadi. Bu holat Temur iqtisodiy barqarorlikni davlat mustahkamligining muhim sharti deb bilganini ko'rsatadi. U iqtisodiy boshqaruvni faqat boylik to'plash vositasi emas, balki hududlarni birlashtirish, savdo-sotiqni jonlantirish va siyosiy yaxlitlikni mustahkamlash mexanizmi sifatida tushungan.

Temur davridagi xazina ikki qismdan iborat bo'lgan: joriy xarajatlar va asosiy zaxira alohida yuritilgan, ayrim hollarda kelgusi davr xarajatlari ham oldindan hisobga olingan. Bu ma'lumotlar moliyaviy rejalashtirishning ancha takomillashgan shakli mavjud bo'lganini anglatadi.

Soliq siyosatida esa Amir Temur adolat va me'yor tamoyillariga tayangan. Xiroj va ushr hosil, yer unumdorligi hamda sug'orish sharoitidan kelib chiqib undirilgan. Yangi yer o'zlashtirgan, bog' yaratgan, xarob hududni obod qilgan kishilarga vaqtinchalik soliq imtiyozlari berilgani esa iqtisodiy rag'batlantirishning aniq namunasidir. Bu yondashuv bir vaqtning o'zida ham davlat manfaatini, ham ishlab chiqaruvchining iqtisodiy imkoniyatini inobatga olgan. Bu kabi siyosat orqali Temur raiyatni haddan ortiq ezish davlat xazinasini ham zaiflashtirishini anglagan.

Ijtimoiy qarashlarida Amir Temur xalq farovonligini davlat barqarorligining asosi sifatida tushungan. Raiyatni xonavayron qilish xazinani kambag'allashtirishdir, bu esa o'z navbatida sipoh tarqoqligiga va saltanatning kuchsizlanishiga olib kelishini bilgan. Bu yerda Sohibqiron oddiy inson turmushini faqat axloqiy masala sifatida emas, balki siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning tarkibiy sharti sifatida baholaganini ko'rish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Amir Temurning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy qarashlari markazida tartibli davlat, adolatli boshqaruv va xalq farovonligiga tayangan siyosiy tafakkur turganini ko'rsatdi. U davlatni kuch bilan boshqariladigan tuzilma sifatida emas, balki adolat, maslahat, intizom va iqtisodiy hisob-kitob uyg'unlashgan tizim sifatida ko'rgan.



Aynan shuning uchun ham Shavkat Mirziyoyev buyuk sarkarda Amir Temurning harbiy mahoratini yosh avlodga o'rgatishga tashabbuskor bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlarini yosh avlod uchun o'rnak bo'lib xizmat qilishini inobatga olgan holda, respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga Temurbeklar maktabi nomi berildi va ularda Temur Tuzuklari hamda Amir Temurning harbiy mahoratini o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda Sohibqiron Amir Temurning davlat boshqaruvi va qo'shin tuzilishi borasidagi faoliyatidan saboq chiqarish yurt taraqqiyoti va uning xavfsizligini ta'minlash, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash omili bo'lib qolaveradi. Xulosa qilib aytganda, Sohibqiron Amir Temur hazratlari milliy davlatchiligimiz tarixida nafaqat yetti iqlim sultoni sifatida, balki yurt obodonchiligi va xalq farovonligi yo'lida bor kuch-g'ayratini safarbar etgan buyuk davlat arbobi sifatida ham muhim o'rin egallaydi.

Sohibqiron Amir Temurning qudratini butun mamlakat ongiga singdirish va har tomonlama barqaror davlat tuzish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchidan, Amir Temurga oid tadqiqotlarda faqat harbiy yurishlar emas, uning iqtisodiy boshqaruv, ijtimoiy siyosat va ma'muriy nazoratga doir qarashlarini ham alohida ilmiy yo'nalish sifatida kengroq o'rganish lozim.

Ikkinchidan, Amir Temur davriga oid birlamchi manbalarni zamonaviy ilmiy izohlar bilan qayta nashr qilish, terminologik sharhlash va akademik muomalaga kengroq kiritish zarur.

Uchinchidan, oliy ta'lim tizimida milliy davlatchilik tafakkuri bo'yicha maxsus kurslar doirasida Amir Temurning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy merosini tahlil shaklida o'qitish foydali bo'ladi.

To'rtinchidan, tarixiy merosni mafkuraviy shior darajasida emas, balki tanqidiy-akademik yondashuv asosida o'rganish kerak. Shundagina Amir Temur qarashlarining haqiqiy ilmiy va amaliy qimmatini to'liq namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Ko'kdala tumaniga tashrifi chog'ida faollar bilan uchrashuvdagi nutqi [Elektron manba]. – URL: <https://daryo.uz/k/2022/04/21/ozim-uchun-ham-bu-yangilik-boldi-shavkat-mirziyoyev-amir-temur-mudofaa-merosi-haqida-gapirdi/>
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari nizomlari [Elektron manba]. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/748>
5. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 186 b.
6. Khalikova L.N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi: darslik. – Samarqand, 2024. – 352 b.
7. Khalikova L.N., Xamrokulova O.D. Istoriya ekonomicheskikh ucheniy: darslik. – Samarqand, 2024. – 430 b.
8. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 432 b.
9. Barthold V.V. Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida. – Toshkent: Fan, 1993. – 392 b.
10. Khalikova L.N. Economic Thoughts of Great People: Monograph. – Shawnee, USA, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>